

**MAKTABGACHA YOSHDAGI KAR BOLALAR NUTQIY
KOMMUNIKATSIYASINI RIVOJLANTIRISH KORREKSION
PEDAGOGIK TEXNOLOGIYALARI**

Axmadaliyeva Gulasalxon Malikjon Qizi

**Qo'qon DPI Maxsus pedagogika,
defektologiya (surdopedagogika)
yo'nalishi II bosqich magistranti**

Annotasiya: Ushbu maqolada maxsus ta'limning eng dolzarb vazifalaridan biri bo'lgan maktabgacha yoshdagi kar bolalar nutqiy kommunikatsiyasini rivojlantirish korreksion pedagogik texnologiyalari va eshitish idrokini rivojlantirish yo'llari ochib berilgan.

Kalit so'zlar: maxsus ta'lim, eshituvda nuqsoni, o'qish, yozuv, faollashtirish, ilmiy izlanishlar, nutq, yozma nutq, shivirlab gapirish, og'zaki nutq

Nutq eshitish qobiliyatini tadqiq etish eng oddiy va oson metod hisoblanadi. Bu metodning qulayligi shunda ko'rinadiki, bunda maxsus asboblari va jihozlari bo'lishi shart emas. Eshitish qobiliyatini tadqiq etishda shivirlagan va baland ovoz-dagi nutq qo'llaniladi. Shivirlab gapirishning u yoki bu darajada tezlashtirish uchun so'zlarni talaffuz qilib turish tavsiya etiladi. Shivirlab gapirishning 6 – 7 metr masofadan qabul qilsa eshitish qobiliyati normal hisoblaniladi.

Bir metrdan kamroq masofadan shivirlab gapirishni qabul qilinishi eshitish qobiliyatining ma'lum darajada pasayganligini bildiradi. Shivirlab gapirishning eshitmasligi eshitishning pastligi ekanligini bildiradi.

Dastlab shivirlab gapirishga qaraganda taxminan 10 metr ko'p bo'lgan masofadan eshitish mumkin bo'lgan o'rta yoki baland nutq qo'llaniladi.

Agar og'zaki baland nutq yomon farq qilinsa yoki butunlay farq qilinmasa kuchli ovoz-dagi nutq (qichqiriq) qo'llaniladi.

Har bir quloqning nutqni eshitish qobiliyatiga aloqida tadqiq qilinadi. Bir quloq tekshirilayotganda ikkinchi quloq barmoq bilan yoki paxta tiqib berkiladi. Agar tekshirilayotgan quloq eshitmasa, ikkinchisi eshitsa, eshitayotgan quloqqa paxta tiqilishi maqsadga muvofiq emas, chunki eshitadigan quloq eshitmaydigan quloq tekshirilayotganda unga aytiladigan gapni eshitadi.

Shuning uchun eshitadigan quloqqa, u eshitmasligi uchun qattiq ovoz chiqaradi-gan shaqildoq shaqillatib turiladi. Nutqni qabul qilishni tekshirishda yaqin ma-sofadan boshlash kerak.

Tekshirilayotgan bola barcha so'zlarni to'g'ri takrorlasa, ko'p talaffuz qilinayotgan so'zlarning farqlay olmaguncha, oradagi masofa asta – sekin ko'paytirib bori-ladi. Gapirilayotgan gapning 50 foizini farqlay olsa, shu masofa nutqni qabul qilish chegarasi hisoblanadi.

Eshitish qobiliyatini tekshirish natijalari faqatgina eshitishning o'tkirligi va hajmiga boqliq bo'lmay, balki eshitilayotgan nutqning fonema, so'z, ibora ka-bi elementlarini farqlay olish qobiliyati bilan ham boqliqdir. Shunday so'z va iboralarni topish kerakki, bu so'zlarni bolalar oson tushunsin.

Eshitish qobiliyatini audiometr yordamida tekshirish eng mukammal usul qisoblanadi. Eshitish qobiliyatini audiometr yordamida tekshirish. Hozirgi vaqtda audiometrning ko'p turlari va modellari ishlab chikarilgan. Eshitish qobiliyatini tekshirishning ikki xili bor: havo yuli orqali tovush o'tkazish mexanizmi orqali tekshirish va suyak orqali tekshirish. Tovushlarning tezligi juda katta chegarada o'zgarishi mumkin: eshitiish qobiliyatini qabul qilish chegarasining pastki qismidan to 120 -125 gacha (o'rta balandlikdagi tovushlar uchun).

Audiometr orqali chiqadigan ovozning balandligi katta diapazonda 150 dan to 10000 ichiga oladi. Ba'zi audiometrlarda tovush balandligining o'zgarishiga maqsus regulyatorning mayin harakat vositasi bilan erishiladi, bu esa shu tipdagi audiometr chastotasi hajmi chegarasida qar qanday chastotaga erishish imkonini beradi. Ko'pchilikaudiometrlar cheklangan miqdorda muayyan chastotani vujudga keltiradi. Audiometr yordamida eshitish sezgisini o'lchash oddiygina amalga oshiriladi. Mahsus dastalarni aylantirish yo'li bilan tovush balandligi va tezligini o'zgar-tirib, minimal tezlik o'rnatiladi, muayyan tezlik balandligi zo'rg'a eshitiladi (tezlik chegarasi). Tekshiriluvchi maxsus knopka yordamida eshitish mavjudligi haqida signal beradi, knopka bosilganda audiometr panelida chiroq yonadi.

Tekshiriluvchi tovush eshitilishi mobaynida knopkani uzluksiz bosib turadi, mana shu vaqt ichida signal chiroqi yonib turadi, to'xtagach chiroq ham o'chadi. Tekshi-riluvchini shunday joylashtirish kerakki, u audiometrning oldingi panelini ko'rmasligi va audiometr dastalari qanday o'rnatilganligini kuzata olmasligi kerak.

Ba'zi audiometr modellarida signal knopkalari yo'q. Bunday hollarda tekshiriluvchi eshitishning paydo bo'lishi va yo'qolishi haqida og'zaki (eshitaman-eshitmayman), yoxud qo'lning ko'tarishi yoki tushirishi orqali signal beradi.

Eshituv idrokini rivojlantirish bo'yicha olib boriladigan ishlarning dastlabki bosqichida nutqsiz tovushlarni o'rganishdan boshlanadi. Bu tovushlar ko'proq sado chiqarish, chastota xarakteristikasi turli tuman bo'ladi, shuningdek tovush no-mini belgilashda so'z zapasi unga ko'p talab qilinmaydi. Bu bolalar uchun, ayniqsa maxsus tayyorgarligi bo'lmagan bolalarning maktabga chiqishida juda muqimdir. Nutqsiz tovushni bolalar tez ilqab oladilar.

Nutqsiz tovushlarni o'rganishdan asosiy maqsad, bolalarda atrof-muqit haqidagi tasovvurni aniqlash, ularning eshituv analizatorlarini turmushga, ya'ni kundalik qayotga yo'naltrilmoq, so'ngara nutqni idrok etishga tayyorlashdir. Nutqsiz tovush orqali eshituv idrokni rivojlantirish programmasi shunday to'zilgan, bunda o'quvchilar eshitishi qulay bo'lgan tovushlardan (doira, nay) lekin bir-biridan keskin farq qiladigan tovushlardan foydalaniladi.

Sekin-asta uncha balanb bo'lmagan tovushlarni faqlashga (garmonika va metolofon) o'tiladi. Bir vaqtni o'zida tovushni nutq bilan qarqlashga, ya'ni o'quvchilarni nutq konstruktsiyasi bilan (doira ovozi chapdan kelayaptimiq, men doira ovozini eshitayapman) tovushni anglashga o'rgatiladi.

Nutqsiz tovush orqali eshituv idrokini rivojlantirish bo'yicha ishlashda dastlab tovushlarni idrok etishda tovushlarni farqlagan yoki farqlanmagan tovushga bo'lib o'rganiladi.

Nutqsiz tovushni idrok etishda farqlanadigan tovush deganda kelib chiqishi nomalum tovush, ya'ni o'quvchilar tovushini eshitadi lekin uniqayrdan chiqqanligini aniqlay olmaydi.

Farqlanmagan tovushni idrok etish bo'yicha bo'ladigan dastlabki darslarda o'quvchilarning eshitish diapazoni chastotasi va dinamikasini hisobga olinadi va nutqsiz tovushlardan foydalaniladi. Buning uchun tovushlarni intensivligini va chastota xarakteristikasi bo'yicha, yetarli darajada kuchli bo'ladi, ya'ni bolalar va tvushlarni tovush kuchaytirgich apparati yordamida eshita olishlari kerak. Bunda bolalar agar tovushni eshitsa qo'llarini ko'taradilar.

O'qitishdan oldin o'qituvchi o'quvchilarga tovush keladigan manba'ni ko'rsatadi (doira). doira tovushini eshittirib, o'quvchilarning eshitish qobilyati va ko'rish xususiyatidan foydalanib, tovushni idrok etishda (doira

chalingandan so'ng), ya'ni eshitsa o'quvchi qo'lini ko'taradi agar tovush bo'lmasa qo'lini ko'tarishirak emas.

Har bir o'quvchi tovushni idrok etib, qo'lini ko'tara boshlaydi. O'qituvchi o'quvchiga ko'zini yumishini, boshini egishini va 2–3 marta doira chalishni (doiraga urishni) so'raydi, tovshni eshitgan o'quvchilar qo'llarini ko'tarishlari kerak.

O'quvchilarni tekshirish uchun o'qituvchi ayrim paytda doirani chertmaydi, o'quvchidan ko'zini ochishini iltimos qiladi va tovushni eshtdilaringmi deb so'raydi. O'qituvchi darsni to har bir o'quvchi o'rganib olguncha yoki tovushni farqlamaguncha dovom ettiradi, ko'pchilik o'quvchi o'zlashtirgandan kyin darsni tugatish mumkin.

Olib boriladgina darsni yanada takomillashtirish uchun quyidagi mashqlar bajarishgi lozim.

1. O'quvchilarga bayroqchalar tarqatiladi. O'quvchi asbob yordamida tovush chiqaradi, o'quvchilar bayroqchalarini ko'taradi, tovush eshitmaslar boyroqni ko'tarmaydilar.
2. O'quvchilar o'qituvchi o'tirgan stolga orqalari bilan turadigan joylaridan yurish marshini qiladilar, tovush to'xtatishi bilan uoar ham to'xtaydilar.

Nutqsiz tovushni idrok etshni farqlab unikelib chiqish manba'ini aytib bera oladi, ya'ni bola doira tovushini yoki qo'nqiroq tovushni aniq aytadi. Bunda albatta tovush kuchaytirgich apparatidan foydalanish kerak. Birinchi darslarda bir-biridan tovushlar keskin farq qiladigan tovush manba'laridan, masalan doira yoki naydan foydalaniladi. O'quvchi eshituv idroki orqali nay tovushidan, doira tovushini albatta farqlay olishi kerak, o'qituvchi bergan namunani nutq orqali ifodalay olishi kerak.

Talaffuzga o'qitishning 2 ta davrni ajratish mumkin:

- a) boshlanqich
- b) talaffuz ko'nikmalarini mukammallashtirish va avtomatizatsiyalashtirish davri.

Agar bolalaning tayyorgarligi bo'lmasa (maktabgacha tayyorgarligi) boshlanqich davr maktab ta'limining 2 yarim yilini (tayyorlov va 1-2- sinflar) o'z ichiga qamrab oladi va agar bola darrov 1 – sinfga kelsa, boshlanqich davr maktab ta'limining 1 yarim yilini (1-2- sinf) o'z ichiga qamrab oladi. Bu davr ichida bolalar orfoepik qoidalarga, urqularga e'tibor beradilar va turli xil tovushlar

tarkibidan iborat so'zlarni to'g'ri ishlab chiqish ko'nikmalariga ega bo'ladilar. qozirgi vaqtda karlar maktablarida talaffuzni shakllantirishning 2 ta yo'li ishlatiladi:

1. O'qitish jarayonida eshitishdan keng foydalanish va daktilema orqali nutqni rivojlantirish, ya'ni o'qituvchilarga murojaat qilayotgan paytning o'zida, ham daktil, ham og'zaki nutqi orqali so'zlarni ishlab chiqadi. Shunda o'quvchilarga faqatgina so'z-larni ishlab chiqishgina emas, balki imkoniyati boricha og'zaki nutqda talaffuz qilishga o'rganadilar. Butun so'zlarni o'qituvchining labidan o'qishga va imkoni boricha eshitish orqali qabul qilishga asoslangan bunday ishlab chiqarish juda ham sxematik tarzda olib boriladi, faqatgina ba'zilarida ularning uzoq o'xshash fonetik ko'rinishini eslatadigan asosiy tovushlarning o'quvchilar tomonidan asta-sekin o'zlashtirish vaqtida to'liq va to'g'ri bo'ladi. Buning natijasida o'quvchi tomonidan daktil shaklida o'zlashtirayotgan material, sekin-asta ularning og'zaki nutqiga o'rna-shadi va kerakli talablar bo'yicha talaffuz qilinadi.

2. O'quvchilarda talaffuz qilish ko'nikmalarini sistematik o'zlashtirishni ta'minlaydigan asosiy yo'l, og'zaki nutqni shakllantirish darsari nutqni shakllantirish darslari bilan boqlangan holda so'z va jumlar material ustida olib boriladigan rejali ishdan tarkib topgan.

Avtomatizatsiya va talaffuzni hosil qilish ko'nikmalarini mukammallashtirish davri ta'limning qolgan yillarini o'z ichiga oladi.

Bu davr davomida erta olingan talaffuz ko'nikmalari mukammallashadi, talffuz nuqsonlari korrektsiyalanadi, shuningdek, bir qator yangi ko'nikmalar shakllanadi. Shu davr o'zida kar bolalar o'zbek tili fonetikasidan aniq bir bilimlarni o'zlashti-radilar. O'rta va yuqori sinflarda talaffuzni shakllanishi bir qator talablar asosida o't-kaziladi. Bunda daktil nutq qisqartirilib, yaxshi eshitadigan bolalarga xos og'zaki muloqot qilish talablariga yaqinlashtiriladi.

Bu davrda talaffuz ustidagi ish o'quvchilarning umumiy rivojlanishi darajasi va ularning talaffuz qilish ko'nikmalarining rivojlanish darajasi bilan boqlangan holda amalga oshiriladi.

Taqlid – birinchi talaffuz ko'nikmalarini hosil qilishning asosiy yo'llaridan biri bo'lib, o'qitishning boshlanqich davrida asosiy o'rinni egallaydi. Avtomatizatsiya davrida ham taqlid o'zining moqiyatini saqlaydi, lekin bu bilan birga eng katta shrinni artikulyatsiyani tushunishni egallaydi. Bu davrda so'zlashuv

bilimiga tayangan holda o'z-o'zini tekshirish imkoniyati paydo bo'ladi. Talaffuzni korrektsiyalashda tak-liflar o'quvchi tomonidan artikulyatsion harakatlarni tushunishi bilan birga olib boriladi.

To'g'ri artikulyatsiya nimalardan iborat ekanligini o'quvchi qanchalik tushunsa, qayta o'qitishda esa shuncha yaxshi kechadi. Shuning uchun bu davrda boshlanqich davrga nisbatan yangi mashqlar kiritiladi. Shu bilan birga bu davrda o'qitish vositasi bo'-lib, so'zlashuv nutqi ishlatiladi, o'quvchilar o'qitishda onglilik tamoyilini amalga oshirish mumkin bo'lgan spetsefik muqitni oshiradilar. Avtomatizatsiya va talaffuz ko'nikmalarini mukammallashtirish davrida yosh xususiyati, umumiy va nutqiy rivoj-lanish darajasi hisobga olingan holda o'quvchilarning mustaqil ishlarning moqiyati oshadi.

Ishning qamma sanab o'tilgan shakllari o'zaro bir-biri bilan boqliq. O'quvchilar eshitishga keng tayangan holda va nutqiy amaliyot shartlarida karlarning talaffuz ko'nikmalarini mukammallashtirish ishlari amalga oshiriladi. Karlarda nafas, ovoz va tovush qo'yish usullari.

Kar bolalarda talaffuz ko'nikmalarini shakllantirish, nutqiy apparatni u yoki bu usul orqali talab etilgan ishni chiqarish zaruriyati bilan boqlangandir. Karlarda nafas, ovoz va tovushni qo'yishda 3 ta asosiy usuldan foydalanish kerak:

Birinchi usul taqlid ga asoslanadi. O'quvchi bor analizatorlari orqali o'qituvchi namoyish qilganini qabul qiladi va qaytaradi. Taqlid quyidagi usullarda amalga oshiriladi: a) eshitish asosida- o'qituvchi ekran orqasida gapirayotganini (tovush, bo'g'in, so'z yoki bir qator bo'g'inlar qatorini “pa-pa-pa” yoki “papapa”) o'quvchi eshitadi va eshitganini to'g'ri talaffuz etishga harakat qiladi.

b) ko'rish asosida – o'quvchi o'qituvchining oqziga (ayrim sh,i, r tovushlarini arti-kulyatsiyasida tilning holati e'tibor bilan qaraydi va xuddi shunday qilib qayta-rishga harakat qiladi.

v) ko'ruv-eshituv asosida – o'quvchi bir vaqtning o'zida o'qituvchining artikulyatsiyasi-ni ko'radi va (oyna orqali) eshitadi (ovoz kuchaytiruvchi apparat bilan oyna orqali mashq qiladi).

g) eshitish va ko'rish orqali qabul qilish bilan boqlangan holda taktil – vibratsion asosda o'quvchi o'qituvchining labiga qaraydi. Masalan, “v” tovushini artikulyatsiyasida o'quvchi o'z qo'lini oqziga yaqinlashtiradi va og'izdan chiqayotgan havo oqimini sezadi, keyin qo'lini bo'yinning qiqildoq soqasiga qo'yiladi va bola ovoz (un) paychalari-ning vibratsiyani seza oladilar.

Taqlid qilishning qamma bosqichlarida talaffuzni korrektsiyalashda va u yoki bu talaffuz ko'nikmalarini dastlabki shakllantirishda qo'llaniladi. Ko'rib chiqilgan usulda ovoz va tovushni qo'yish turli xil ko'rsatmali vositalardan amalga oshirila-di. Bu ovoz kuchaytiruvchi apparat, shuningdek, talaffuz ustida vibrayion va ko'rish nazoratiga mo'ljallangan apparat va oyna bo'lishi mumkin.

Ikkinchi usul – mexanik usuli. Bunda o'qituvchi nutqiy organning unisi yoki bunisiga ta'sir qilib, uni passiv harakatga yoki bir holatga keltiradi. qorin devorga qo'l bilan bosish orqali yoki agarda bola faltset (eng baland, ingichka erkak ovozi) ovoziga moyilligi bo'lsa, bunda qiqildoqqa qo'l bilan engil bosish orqali nafas ustida ish amalga oshiriladi.

Ikkinchi usul orqali tovushni hosil qilish quyidagicha: o'quvchiga u yoki bu tovush-ni aytish taklif etiladi. Shu paytning o'zida o'qituvchi qo'l, shpatel yoki zond orqali o'quvchining nutqiy organlar holatini o'zgartirad va ularni passiv harakatga kel-tiradi. qo'yilishi kerak bo'lgan tovush hosil bo'ladi. (“k” tov. “t”dan, “x”tov. “s”dan, “sh” tov. “s” dan, “sh” tov. “s” dan yoki “r”dan).

O'quvchi o'zi bilmagan holda harakatlarni bajarishi bu usulning xususiyati hisoblanadi. Masalan, “ta” bo'g'inini o'qituvchi talabiga muvofiq talaffuz qilishga harakat qiladi. Shunda o'qituvchi shpatel yoki qo'l barmoqlari yordamida bolalning tilini bosish orqali “ka” bo'g'inini hosil qiladi. Bir qator mashg'ulotlardan so'ng, kar bolaning miya qobiqida kinestetik o'zgarishlari paydo bo'ladi. Bu o'quvchining nutqiy organlar yangi harakatni va holatni belgilaydi, bu esa o'quvchi uchun qanchalik eshitu qoldiqi bo'lgan tovushni mustaqil o'zi ishlab chiqishga yordam beradi. Uchinchi usul- aralash usuli. Bu usul birinchi va ikkinchi usulning birga olib bo-rilishidir. O'quvchi o'qituchi taklifi asosida u yoki nutqiy orgnalar harakatini ish-lab chiqaradi, lekin bu aniq emas. O'qituvchi talab qilinayotgan tovushni to'g'ri talaffuz qilishga yordam beradi. “O” tovushini qo'yishda, masalan, bola labini etar-li darajada oldinga chiqarolmaydi(“o” , “a” tovushga yaqin talaffuz qilinadi). Shun-da o'qituvchi katta va ko'rsatkich barmoqlari yordamida bolalaning yo'ziga qo'yib bosadi va lablar oldinga qarab chiqariladi.

Foydalanilgan adabiyaotlar:

1. Рахимова, Хуршидахон Содиковна. "FACTORS IN THE FORMATION OF MOTIVATION FOR INDEPENDENCE IN CHILDREN ON THE BASIS OF AUDITORY AND SPEECH REHABILITATION AFTER COCHLEAR IMPLANTATION." Scientific Bulletin of Namangan State University 2.10 (2020): 391-396.
2. Тешабоева, Ф. Р. (2020). PROBLEMS OF TEACHING THE MODULE" SPECIAL METHODS OF TEACHING THE MOTHER LANGUAGE" AT THE UNIVERSITY. Актуальные научные исследования в современном мире, (5-7), 229-232
3. Sodiqjon o'g'li, Akbarov Sardor. "O‘ZBEKISTONDA INKLYUZIV TA’LIMNING JORIY HOLATI VA MAVJUD MUAMMOLARI." Conference Zone. 2022.
4. Sodiqjon o'g'li, Akbarov Sardorjon. "INKLYUZIV TA’LIMNING MAQSAD VA VAZIFALARI." Conference Zone. 2022.
5. Shermatovna, Erkaboyeva Nigora, and Akbarov Sardor Sodiqjon O’g’li. "Conditions of inclusive education." Web of Scientist: International Scientific Research Journal 3.7 (2022): 1-4.
6. Teshaboeva F.R. Effective factors for the organization of theoretical training in the module" Special methods of teaching the mother tongue" in the field of higher defectological education. Scientific Bulletin of Namangan State University 2 (10), 383-387
7. Sobirkhonovna, M. M. (2020). An Innovative Mechanisms to Increase the Effectiveness of Independent Education of Future Defectologists. International Journal on Integrated Education, 3(11), 210-211.8.
8. Sobirkhonovna, M. M. (2020, December). PROFESSIONAL TRAINING OF FUTURE SPEAKERS IN THE PERIOD OF INDEPENDENT STUDY. In Archive of Conferences (Vol. 10, No. 1, pp. 75-76).
9. Solievna, Mirboboyeva Nodiraxon. "GAME TEACHING TECHNIQUES FOR PRESCHOOL CHILDREN." Web of Scientist: International Scientific Research Journal 3.4 (2022): 1260-1262.

10. Solievna, Mirboboyeva Nodiraxon. "DIFFERENCE BETWEEN MENTAL WEAKNESS AND SIMILAR STATUS." Archive of Conferences. Vol. 15. No. 1. 2021.
11. Rahimna, Teshaoeva Feruza. "THE USE OF COMPUTER GAMES TO DEVELOP SPEECH CAPABILITIES FOR CHILDREN WITH SPEECH DEFICIENCY." In Conference Zone, pp. 130-132. 2022.
12. Тешабоева, Ф. Р. "PROBLEMS OF TEACHING THE MODULE" SPECIAL METHODS OF TEACHING THE MOTHER LANGUAGE" AT THE UNIVERSITY." Актуальные научные исследования в современном мире 5-7 (2020): 229-232.
13. Raximovna, Teshaboeva Feruza. "Didactic and motivational opportunities for the use of variable approaches to increase the professional competence of future defectologists." Web of Scientist: International Scientific Research Journal 3.4 (2022): 1256-1259.
14. Mahmudova, M. S. (2020). THE ROLE OF INDEPENDENT EDUCATION IN THE FORMATION OF PROFESSIONAL COMPETENCIES OF PROSPECTIVE SPEECH THERAPISTS. Scientific Bulletin of Namangan State University, 2(10), 358-363.
15. Mahmudova, M. S. (2020). THE ROLE OF INDEPENDENT EDUCATION IN THE FORMATION OF PROFESSIONAL COMPETENCIES OF PROSPECTIVE SPEECH THERAPISTS. Scientific Bulletin of Namangan State University, 2(10), 358-363.
16. Тешабоева, Ф. Р. (2020). PROBLEMS OF TEACHING THE MODULE" SPECIAL METHODS OF TEACHING THE MOTHER LANGUAGE" AT THE UNIVERSITY. Актуальные научные исследования в современном мире, (5-7), 229-232.
17. Makhmudov Khurshid Shukhratovich. IMPORTANCE OF DIDACTIC GAMES IN SPEECH DEVELOPMENT OF MENTALLY RETARDED CHILDREN. Asian Journal of Multidimensional Research. ISSN: 2278-4853 Vol. 11, Issue 11, November 2022 SJIF 2022 = 8.179 A peer reviewed journal. Pages 20-23.
18. Sodiqovna, Rakhimova Khurshidahon. "USE OF INNOVATIVE TECHNOLOGIES IN THE FORMATION OF SPEECH SKILLS IN

- CHILDREN WITH HEARING DISABILITIES." Euro-Asia Conferences. Vol. 1. No. 1. 2021.
19. Yuldasheva, Ayupova Mukarramxon, and Rakhimova Khurshidahon Sodiqovna. "CORRECTION-PEDAGOGICAL WORK SYSTEM OF PREPARATION OF CHILDREN FOR INDEPENDENT ACTIVITY AFTER COCHLEAR IMPLANTATION." Archive of Conferences. Vol. 10. No. 1. 2020.
 20. Sodiqovna, Rakhimova Khurshidahon, and Kadyrova Mahzuna Shamshidinovna. "DEVELOPING HEARING PERCEPTION IN HEARING-IMPAIRED CHILDREN OF PRESCHOOL AGE." (2021).
 21. Kodirova F.U., Matupaeva S.Z., Teshaboeva F.R. Methodical cluster-an innovative mechanism to increase the efficiency of general secondary and inclusive education. [//http://www.idpublications.org/wp-content/uploads/2020/08/5](http://www.idpublications.org/wp-content/uploads/2020/08/5).
 22. Rakhimova Khurshidahon Sodiqovna. PREPARATION OF PRESCHOOL CHILDREN WITH COCHLEAR IMPLANTS FOR INDEPENDENT LEARNING. European Journal of Research and Reflection in Educational Sciences Vol. 8 No. 8, 2020 Part III, ISSN 2056-5852. Page 159-161.
 23. Sadikovna, Rakhimova Khurshidahon. "Objectives and tasks of cochlear implantation." Web of Scientist: International Scientific Research Journal 3.4 (2022): 1250-1255.
 24. Sodiqovna, R. K., & Zulfiya, A. Formation of Independence Motivation Based on Rehabilitation Work with Children with Cochlear Implants. International Journal on Integrated Education, 3(10), 310-312.
 25. Solieva, Mirboboyeva Nodiraxon, and Habibullayeva Madinahon. "MODERN APPROACHES TO DEVELOPMENTAL DISABILITIES IN CHILDREN WITH DISABILITIES." (2021).
 26. Soliyeva, Mirboboyeva Nodiraxon. "METHODS USED TO EXAMINE MENTALLY RETARDED CHILDREN." (2021).
 27. Rakhimova Khurshidahon Sadikovna, HEARING-SPEECH REHABILITATION OF CHILDREN WITH COCHLEAR IMPLANTS AS A SOCIO-PEDAGOGICAL PROBLEM. Asian Journal of Multidimensional Research ISSN: 2278-4853 Vol. 11, Issue 11, November 2022 SJIF 2022 = 8.179 A peer reviewed journal, Pages 6-9.

Proceedings of International Congress on “Multidisciplinary Studies in Education and Applied Sciences”

Hosted Online from Bilbao, Spain on November 10th, 2022.

www.conferencezone.org

28. Mirbabaeva Nadirakhan, CHILDREN WITH DELAYED MENTAL DEVELOPMENT. Asian Journal of Multidimensional Research ISSN: 2278-4853 Vol. 11, Issue 11, November 2022 SJIF 2022 = 8.179 A peer reviewed journal, Pages 15-19
29. Xonbabayev SH.D. (2022). Socio-Pedagogical Basis of Spiritual and Spiritual Education Mechanisms in Society and Foreign Experiences. International Journal of Culture and Modernity, 285-292
30. Xonbabayev Sh.D. (2022). Innovative-pedagogical basis of development of the process of spiritual education. EUROPEAN MULTIDISCIPLINARY JOURNAL OF MODERN SCIENCE, 199-202 (EMJ-MS)
31. Mahmudov Khurshid Shukhratovich “IMPORTANT ASPECTS OF COOPERATION IN THE INCLUSIVE EDUCATIONAL PROCESS” ACADEMICIA An International Multidisciplinary Research Journal (Double Blind Refereed & Peer Reviewed Journal) DOI: 10.5958/2249-7137.2020.01334.8